


2-amaliy ish

1-rasmda bir o'ramli prujinali manomerlarning kinematik sxemasi keltirilgan. Bosim o'zgarishi natijasida prujina 3 uchining siljishi tortqi 5 orqali o'q 6 da aylanayotgan sektor 1 ga uzatiladi.



Sektorning burchakli siljishi tishli ilashma yordamida tribka 2 ning aylanishiga olib keladi. Tribkaning o'qiga ko'rsatuvchi strelka 4 birlashtirilgan. Naychaning bo'sh uchida siljish uncha katta bo'lmagani sababli, ko'pincha, ko'p o'ramli naychasimon prujinalar ishlatiladi. Ko'p o'ramli (gelikoidal) naychasimon prujinali manometrlarning ish organi olti to'qqiz o'ramli yassi naychadan hosil qilingan silindrik spiral shakliga ega.

Membranali asboblار. So‘nggi yillarda membranali asboblار tobora keng qo‘llanilmoqda. Bu asboblarda sezgir element sifatida elastik materiallardan tayyorlangan yumshoq, shuningdek, gofrilangan plastinkasimon membranalar yoki gofrilangan membrana qutichalar ishlatiladi. Membranali asboblار, uncha katta bo‘lmagan ortiqcha bosimlar va siyraklanishlarni (manometrlar, naporomerlar va tyagomerlar) hamda bosimlar farqini o‘lchash uchun (difmanometrlar) qo‘llanadi.

Silfonli asboblar.Hozir sezgir element sifatida silfonli asboblar keng qo'llanilmoqda. Silfonlar jez, bronza, zanglamas po'lat va boshqalardan tayyorlanadi. Ularning ba'zi turlari vint prujinali qilib tayyorlanadi, buning natijasida gisterezis va nochiziqlik ta'siri kamayib, asbobning qo'llanilish diapazoni kengayadi. Silfonlar bir qatlamli va ko'p qatlamli bo'ladi.

